

20-May, 2025-yil

**TRASOLOGIK EKSPERTIZADA BUZISH QUROLLARI ORQALI
ANIQLANAYOTGAN JINOYATLARNI OCHISHDA TURLI XIL
ASHYOLARNING AHAMIYATI**

Kriminalistik ekspertizalar kafedrası

katta o'qituvchisi (PhD) dotsent

mayor A.A.Zulfiqorov

Ekspert-kriminalistika faoliyati

328-guruh kursanti

Abduqayumov Mirolim Shuhratjon o'g'li

Annatotsiya: *Ushbu maqolada sodir etilgan jinoyat joylaridan topilgan, hodisa sodir etilgan joyni ko'zdan kechirish, jinoyatni aniqlashda turli xil tasmollar tuzish, trasologik izlar va buyumlarning shu jinoyatlarni ochishdagi ahamiyati, umuman olganda trasologik iz, uning turlari va ularni identifikatsiyasi, trasologik ekspertiza xulosasi haqida ma'lumotlar keltirilgan hamda insenirovkali holatlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Trasologiya, iz, buzish qurollaridan qoldirilgan izlar, trasologik izlar va buyumlar, trasologik ekspertiza xulosasi, hodisa joyini ko'zdan kechirish, hodisa joyidan olingan ashyolar, ko'zdan kechirish jarayoni, olingan ashyoda qoldirilgan izlarni aniqlash, insenirovka*

Bugungi kunda ichki ishlar organlari uchun professional kadrlar tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratilayotgani, sohada o'z burchi va qasamyodiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar xodimlar soni ko'payib borayotganini islohotlarimizning eng muhim natijasi sifatida qabul qilamiz. Shiddat bilan o'zgarayotgan bugungi murakkab zamonda dunyoning turli mintaqalarida hukm surayotgan notinch vaziyatlar, qurolli to'qnashuvlar har birimizni doimo hushyor va ogoh bo'lishga undaydi. Bunday sharoitda uyushgan transmilliy jinoyatchilik, terrorizm va ekstremizm, narkobiznes, korrupsiya kabi tahdidlarga qarshi samarali kurashish, ularga keskin zarba berish tobora dolzarb ahamiyat kasb etadi”1.

Jinoyat sodir etgan shaxslarni fosh etishga va jazolashga qaratilgan jinoiy sud amaliyoti masalalarining hal etilishi har bir jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni tiklash bilan bog'liqdir. Jinoyat hodisasini har tomonlama tadqiq etish orqali unga aloqador bo'lgan barcha shaxslarning o'rni hamda jinoyat sodir etish shart-sharoitlarini yetarli darajada ishonchli fosh etish mumkin. Jinoyatchilar tomonidan sodir etilgan harakatlar atrof muhitda o'ziga xos ravishda qolgan izlarda ifodalanadi. Bu izlar esa kriminalistika sohasida moddiy izlar deb ataladi. Moddiy izlarni aniqlash, ularni hisobga olish va tekshirish usullarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish, yuzaga kelish qonuniyatlarini zamonaviy texnika asosida tahlil qilish, shuningdek zamonaviy kriminalistik texnika sohasi bo'lgan izlar to'g'risidagi kriminalistik ta'lim yoki trasologiya vujudga kelishiga asos bo'ldi. Kriminalistikaning izlar haqidagi bo'limini ilk bor “trasologiya” deb atashni taklif qilgan. I. N. Yakimov ushbu bo'limga kriminalistik jihatdan alohida ahamiyat qaratib, hozirgi vaqtda kriminalistikada

20-May, 2025-yil

ashyoviy dalillar va izlar haqidagi ta’limot yoki “trasologiya” birinchi darajali ahamiyatga egaligini ta’kidlagan.

Iz – atrof muhitdagi o’zgarishni baholash va tahlil qilish uchun aniqlangan, mustahkamlangan ekspertiza manbaidir. Izlar o’zlarida mavjud bo’lgan jinoiy-huquqiy axborot va ma’lumotlarning signalli-belgili ifodalovchilaridir.

Trasologik izlar deganda, atrof-muhitda sodir bo’lgan yoki bo’layotgan shunday o’zgarishlar tushuniladiki, ular natijasida bir narsaning tashqi tuzilishi boshqasida o’z aksini topadi .

Trasologik iz tushunchasi – jinoyat ishlarining daliliy bazasini shakllashtirishda foydalaniladigan, qidiruv harakatlarida ishlatiladigan ma’lumotlarning butun yig’indisini o’z ichiga oladigan iz qabul qiluvchi va iz qoldiruvchi obyekt ta’sirida vujudga kelgan moddiy aks etish manbaidir.

Izlarning hosil bo’lish mexanizmi orqali quyidagilar aniqlanishi mumkin:

- 1) obyektlarning o’zaro ta’sir hodisasi;
- 2) ta’sir shakli (fizik, kimyoviy, biologik);
- 3) ta’sir yo’nalishi va kuchi;
- 4) iz hosil bo’lish mexanizmi va shartlari;
- 5) iz hosil bo’lishda qatnashuvchi obyektlarning xossalari

Buzish qurollarining quyidagicha tasniflanishini taklif etilgan:

1) Mexanik ta’sirga ega bo’lgan buzish qurollari, bundan qurollar sirasiga – parmalovchi, kesuvchi, arralovchi, bosma, uruvchi va hokazolar ta’sir qiluvchi obyektlarni kiritish mumkin;

2) Termik ta’sirga ega bo’lgan buzish qurollari, jumladan, gaz-kislorodli kesish-payvandlash uskunalari, elektr yoyli kesish-payvandlash uskunalari, gaz-payvandlash uskunalari;

3) Portlovchi ta’sirga ega bo’lgan buzish qurollari, jumadan, gaz aralashmali portlatish qurilmalari va kondensirlangan portlash qurilmalari va hokazolar.

Ushbu keltirilgan buzish qurollaridan turli obyektlarda qolishi mumkin bo’lgan izlar esa quyidagilar bo’lishi mumkin:

1. Mexanik ta’sirga ega bo’lgan buzish qurollardan quyidagi guruh izlari qolishi mumkin:

bosish (urish) izlari – buzishni obyektga nisbatan bosish, shuningdek, obyektga urish ta’sirida vujudga keladi;

ishqalanish izlari – buzilayotgan obyekt sirtiga buzish qurolining ishchi sirtini, obyekt ustida sirpanish ko’rinishidagi ta’sir ko’rsatishida vujudga keladi;

kesish izlari – arra, egov, parma kabi kesuvchi buzish qurollarining obyektga ta’sir etishi natijasida vuduga keladi.

2. Termik ta’sirga ega bo’lgan buzish qurollaridan quyidagi guruh izlari aniqlanishi

Mumkin: karbid kalsiyining parchalari yoki uni parchalanish izlari – kuyib bo’lgan ohak parchalari,

shuningdek karbidning hidi;

20-May, 2025-yil

- hodisa sodir bo‘lgan joyda yongan gugurt donalari;
- joydagi polning termik jarohatlari;
- atsetilenli generator yoki gaz ballonlarining aylana shaklidagi tag qismining izlari;
- lak-bo‘yoq qoplamlarning izlari;
- hodisa joyida tashlab ketilgan turli payvandlash uskunalari yoki ularning ayrim qismlari;

- turli yoqilg‘i-moylash mahsulotlari quyilgan yoki shunday mahsulotlarning quyilganlik izlari bo‘lgan idi-

shlar;

- hodisa joyidagi obyektlardagi kerosin, benzin kabi mahsulotlarining mavjudligi;

- payvandlash elektrodleri yoki ularning qoldiqlari;

- elektrod qoplamlarining qoldiqlari;

- og‘ir payvandlash transformatorining izlari;

- elektr tarmoqlariga yuqori kuchlanishli uskunalarni ulanganlik alomatleri.

3. Portlovchi ta’sirga ega bo‘lgan buzish qurollaridan esa asosan portlashdan so‘ng qoladigan izlar vujudga keladi:

- hodisa joyida va u yerda joylashgan obyektlardag mexanik buzilishlar;

- turli teshiklar, yoriqlar, deformatsiyalar ko‘rinishidagi buzilishlar va jarohatlar;

- mustahkamligi katta bo‘lmagan obyektlarning to‘liq yoki qisman buzilib ketishi;

- hodisa joyida, asosan yerda yoki polda konussimon chuqurlar;

- buzilishlar markazining lokal joylashganligi;

- portlovchi moddalar yoki portlovchi qurilmalar, ularning ayrim qismlarining mavjudligi;

xodisa joyida portlovchi qurilmalar portlaganda vujudga keladigan oskolkalar ta’sirida paydo bo‘lgan izlar.

Endi barcha: mexanik, termik va portlash ta’sirlariga ega bo‘lgan buzish qurollar foydalanish usullarini ko‘rib chiqaylik:

kuch ishlatib, obyektzni yoki uning birorta qismini siqish, ayirish, ajratish, yirib ochish (otjim) usuli, bu usulda turli lomlar (fomka, mix sug‘urgichlar, buragichlar (otvertka), iskana, domkrat, qurilish-montaj va panjali lomlar va hokazolar ishlatilishi mumkin;

oddiy ochish usuli, bu usuldan foydalanish uchun ochqichlar (otmichkalar), tanlangan kalitlar ishlatiladi;

kesish usuli, buning uchun kesuvchi buyumlar, elektr bolg‘a, konserva ochqichiga o‘xshash uskunalar, aylanma kechikchli buzish qurollari, gidravlik qaychilar, turli payvandlash uskunalari ishlatiladi;

arralash va egovlash usuli, bu usuldan foydalanish uchun arralar, egovlar, temir arrasi kabi qurollardan foydalaniladi;

- parmalash usuli, buning uchun turli mexanik va elektr parmalar ishlatiladi;

- portlatish usuli, buning uchun turli portlatish moslamalari ishlatiladi.

Ushbu yuqorida keltirilgan, buzish qurollari izlarining trasologik ekspertizasiga oid ekspertiza amaliyotida uchra turadigan muammolar, buzish qurollarining turlari, ularni

20-May, 2025-yil

ishlatish usullari hamda ishlatish natijasida hodisa joyida aniqlanishi mumkin bo'lgan izlar va alomatlar bilan ushbu ro'yxatni to'la tugallangan deb bo'lmaydi albatta. Chunki, ishlab chiqarish texnologiyalari rivojlanib borgan sari turli maqsadlar (sanoat, qishloq xo'jalik, harbiy sohalar va hokazolar) uchun yaratiladigan turli asbob-uskunalar, qurilma va moslamalar ham takomillashib, yangilari yaratilib, ularni amalga tadbqiq etish jarayoni rivojlanib borgan sari, ushbu aytilgan buyumlarni asl maqsadi uchun emas, balki jinoiy maqsadlar uchun ishlatish usullari, ushbu buyumlardan qonunga xilof maqsadlarda foydalanish uchun ulardan foydalanish harakatlari ham rivojlanib va takomillashib boradi. Demak, ushbu sohani e'tibordan chetda qoldirmaslik, uni yanada chuqurroq o'rganish vayanada rivojlantirish, takomillashtirish ekspert-kriminalistlar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lishi kerak.

Hodisa joyini ko'zdan kechirish – ishga taalluqli jinoyat izlarini topish, qayd etish, tadqiq etish va olish maqsadida o'tkaziladigan, o'tgan hodisa xarakterini va ishga tegishli boshqa holatlarni aniqlashdan iborat kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatidir. Jinoyatning ochilishi va uning samarali tergov qilinishida hodisa joyini ko'zdan kechirish markaziy o'rin tutadi va muhim ahamiyat kasb etadi. Tergovchi hodisa joyini ko'zdan kechirishda sodir bo'lgan hodisa (masalan, qotillik sodir etilganmi, o'z joniga suyoqsd qilinganmi yoki baxtsiz hodisa ro'y berganmi?), jinoyatni sodir etgan shaxslar va jinoyatning alohida holatlari bo'yicha tasmollarni ilgari suradi va ularni tekshiradi. Bunday tasmollarni ishlab chiqish va ilgari surishda mutaxassis-kriminalist, operativ hodim, profilaktika inspektori va boshqa surishtiruv idoralarining xodimlari tergovchiga yaqindan yordam ko'rsatishlari kerak. Tasmollar hodisa sodir bo'lgan joydagi holat, surishtiruv idoralarining operativ ma'lumotlari, guvohlarning ko'rsatmalari, jamoatchilik vakillari (mahalla posboni, fuqarolar yig'ini raisi va boshqalar) tomonidan tushgan ma'lumotlarning tahlilidan kelib chiqqan holda ilgari suriladi. Hodisa joyidagi holatga aniqlik kiritish uchun mutaxassis-kriminalist va sud-tibbiy ekspertlarining maxsus bilimlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Hodisa joyini ko'zdan kechirish bayonnomasiga qo'yilgan talablarda bayonnomaga sodir bo'lgan hodisa bo'yicha tergovchining sub'yektiv fikrlarini kiritilmasligi to'g'risida takidlanadi. Bu degani narsa va buyumlarni, turli ob'yektlarni faqatgina tasvirlash bilan chegaralanish degani emas. Tergovchining doimiy ravishda ish bo'yicha daliliy ahamiyatga ega murakkab jumboqli masalalarni hal etib borishi muhimdir. Ushbu masalalarni hal etishda tasmollarni olg'a surish va ularni tekshirish katta ahamiyatga ega. Bu quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1) ko'zdan kechirishning maqsadli o'tishi, topilgan ob'yektlarning haqiqiy aloqalarini aniqlash (masalan, o'g'irlik jinoyati sodir etilgan joyni ko'zdan kechirishda, tergovchi inssenirovka to'g'risidagi tasmolni olg'a surib, ushbu tasmolni tasdiqlovchi yoki rad etuvchi izlarni qidiradi);

2) ish uchun ahamiyatga molik yangi izlar va predmetlarni topish (agar tergovchi tomonidan ilgari surilgan tasmollarning biri sodir bo'lgan hodisaning tabiatiga mos kelsa, tergovchi sodir bo'lgan hodisani hayolan qayta tiklab, birinchi navbatda qanday izlarni qayerdan qidirish kerakligini aniqlaydi;

20-May, 2025-yil

3) ko'zdan kechirish hududlarini va qidiruvning yo'nalishlarini to'g'ri belgilaydi;

4) topilgan ob'yektlarning tekshirilayotgan hodisaga tegishlilikini aniqlaydi;

5) keyingi navbatda o'tkazilishi zarur bo'lgan tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini belgilaydi. Ayrim hollarda, jinoyat sodir etgan shaxs (shaxslar) jinoiy javobgarlikdan bo'yin tovlashi, jinoyat hodisasi to'g'risidagi ob'yektiv haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilishi, jinoyatni yashirishi mumkin. Jinoyatlarni yashirishga qaratilgan harakatlar quyidagilar bo'lish mumkin:

- jinoyat sodir etish qurolini yashirish;
- alibi (vaj) o'ylab topish;
- jinoyat hodisasi izlarini yashirish va niqoblash.

Jinoyat hodisasi izlarini yashirish harakatlari bilan jinoyat izlari yo'q qilib tashlanadi yoki boshqa izlar orqali niqoblanadi. bunday harakatlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: qon izlarini yuvib tashlash, jinoyat qurollari yo'q qilish va boshqalar).

Jinoyatlarni yashirishning asosiy usullaridan biri jinoyat hodisasini sahnalashtirish (inseniroyka)dir. Bunda, jinoyat hodisasining motivlari niqoblanadi.

Sahnalashtirishni jinoyat hodisasini birinchi bo'lib ko'rgan shaxsning dastlabki harakatlardan farqlash kerak. Masalan, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish maqsadida jinoyat sodir bo'lgan joydagi holatga o'zgartirish kiritib qo'yish va boshqalar.

Sahnalashtirishni ikki turga ajratish mumkin:

- 1) oldindan tayrlangan sahnalashtirish;
- 2) tayyorlanmagan sahnalashtirish.

Oldindan tayyorlangan sahnalashtirishni jinoyatchi jinoyatni sodir etishidan oldin rejalashtiradi va harakatlarining ketma-ketligi aniq bo'ladi. Tayyorlanmagan sahnalashtirishda, jinoyatchi jinoyatni sodir etib bo'lganidan so'ng sahnalashtirish fikri tug'ilib qoladi.

Hodisa joyini ko'zdan kechirish – hodisa to'g'risida dastlabki haqiqiy va aniq ma'lumotlarni beradi. Ushbu tergov harakatida ish uchun muhim bo'lgan: qachon, qayerda, nima bo'lganligi, jinoyat motivlari hamda jinoyatchi to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar to'planadi, shuningdek hodisa joyida sahnalashtirish alomatlarini ham qidiriladi.

Hodisa joyini ko'zdan kechirishda birinchi navbatda sodir etilgan hodisaning jinoyat ekanligi masalasi, so'ngra esa qanday jinoyat sodir etilganligi aniqlanadi. Masalan, odam o'ldirilganmi, o'z joniga suyiqlas qilganmi yoki baxtsiz hodisa oqibatimi? Albatta, bunday masalaning hal qilinishi hodisa holati, jasad, uning kiyimlari, qon izlari va boshqalarni mukammal o'rganishni talab etadi. Odatda hodisa joyini ko'zdan kechirish markazdan, ya'ni tergov uchun ahamiyatli bo'lgan buyumlar va izlar eng ko'p miqdori to'plangan joydan boshlanadi. Masalan, o'g'rilik jinoyati eshikni buzish bilan sodir etilgan bo'lsa – eshikdan, qotillik jinoyati sodir bo'lgan bo'lsa - jasadidan va boshqalar.

Ko'zdan kechirishni sirtidan ko'zdan kechirish bilan boshlash tavsiya etiladi. Ayniqsa,

1) agar, hodisa joyining markazi aniqlanmagan bo'lsa (masalan, og'ir tan jarohati yetkazilgan, jabrlanuvchi esa kasalxonada;

20-May, 2025-yil

2) agar, chekka joylardagi izlarning yo'qolib ketish ehtimoli bo'lsa (masalan, savdo do'konidan eshikni buzish orqali o'g'rilik sodir etilgan, do'kon atrofida transport vositasining izi mavjud);

3) agar, markazga qarab harakatlanish izlarning yo'qolishiga olib kelsa (masalan, jasad xonalarga olib kiruvchi tor yo'lakning oxirida joylashgan, polda esa turli buyum va narsalar bilan qonli poyabzalning izlari mavjud).

Hodisa joyini ko'zdan kechirish jarayonida ish uchun muhim bo'lgan ma'lum bir ob'yektni qidirib topish maqsadida hududni tozalab tekshirish zaruriyati tug'ilishi mumkin. Bunday harakatni samarali olib borish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- 1) tozalab tekshirilishi kerak bo'lgan hudud chegaralarini belgilash;
- 2) hududni tozalashda ishtirok etadigan shaxslarning ro'yxatini tuzish;
- 3) hududni taqsimlash va shaxslarni biriktirish (ro'yxatda biriktirilgan joyini qayd qilish);
- 4) qidiruvda ishlatiladigan texnik vositalarni tayyorlash;
- 5) qidiruv ishtirokchilari bilan yo'riqnoma o'tkazish (tergovchini qiziqtirayotgan ob'ektlar to'g'risida, biror ob'yekt topilganda tergovchi bilan aloqaga chiqish, topilgan ob'ektlar bilan muomala qilish tartibi va ob'yekt topilganda qanday harakat qilish to'g'risida ma'lumot beriladi).

Tozalab tekshirish natijasida qiziqtirayotgan ob'yekt topilsa, ushbu ob'yektni topgan shaxs tergovchiga xabar beradi va tergovchi zudlik bilan ob'yekt aniqlangan joyga borib, uni topgan shaxs ishtirokida ob'yektni ko'zdan kechiradi. Ko'zdan kechirish bayonnomasida ushbu ob'yektning qayerda va kim tomonidan topilganligi ham qayd etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning “Ichki ishlar organlari xodimlari kuni” munosabati bilan tabrigi // <https://iiv.uz/news/>.
2. Trasologik ekspertiza: Darslik / S.A. Nurumbetova, T.B. Mamatqulov, X.A.Turabbayev va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi.
4. Xodisa joyini ko'zdan kechirish: o'quv qo'llanma –U.M.Nosirov
5. Trasologik ekspertizasi bo'yicha qo'llanma.